



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
Allamurodov Elyor Tursun ugli	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
Dilrabo Jumanova	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar	227
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar	232
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOGNITIV TILSHUNOSLIKNI JORIY ETISH MASALALAR

Mamatova Gulshan Amankulovna

PROFI universitetining

“Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim” kafedrasida dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada ona tilini o'rgatishda kognitiv tilshunoslikni joriy etishning ahamiyati va uni amalga oshirish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv, qobiliyat, kognitiv tilshunoslik, muammoli bayon, muammoni yechish, evristik usullar, tafakkur, ijodiy tafakkur, fikrlash jarayoni.

Abstract: The article highlights the importance of introducing cognitive linguistics into the teaching of the native language and the ways to implement it.

Key words: cognitive, abilities, cognitive linguistics, problem statement, problem solving, heuristic methods, thinking, creative thinking, thinking process.

Аннотация: В статье освещается важность внедрения когнитивной лингвистики в преподавание родного языка и способы её реализации.

Ключевые слова: когнитив, способности, когнитивная лингвистика, постановка проблемы, решение проблемы, эвристические методы, мышление, творческое мышление, процесс мышления.

KIRISH

Bugungi globallashuv va transformatsiyalashuv sharoitida ta'lim jarayonida axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun til savodxonligi nafaqat axborotni tushunish, balki uni tanqidiy qayta ishlash, baholash va ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bunday ko'nikmalarni rivojlantirishda kognitiv yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ongli idrok, eslab qolish, tahlil qilish, sintezlash va muammolarni hal etishga asoslangan ta'lim strategiyalariga tayanadi.

Til savodxonligini kognitiv yondashuv asosida o'rgatishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga axborotni tahlil qilish, taqqoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va g'oyalarni sintez qilishga asoslangan topshiriqlar berilishi lozim. Bunday topshiriqlar nafaqat bilimni mustahkamlash, balki tafakkurni faollashtirish, axborotni mantiqiy tahlil qilish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kognitiv tilshunoslik - inson tafakkuri, dunyoqarashi va til o'rtasidagi bog'liqlikni, so'zlarning ongimizda qanday shakllanishini o'rganuvchi yo'nalish. Biz tadqiqotimizda ta'limda kognitiv tilshunoslik muammosiga e'tiborimizni qaratdik.

Kognitiv tilshunoslikning o'rganish obyekti til hisoblanadi. Bu fan tilni “inson ongida fikrlarni shakllantiruvchi va ifodalovchi, bilimlarni saqlovchi va tashkil qiluvchi vosita” sifatida tadqiq etadi.

Ma'lumki, til birliklariga kognitiv yondashuv til hodisalarini bilish nazariyasi yordamida izohlash usullaridan biri hisoblanadi.¹ Shu ma'noda kognitiv tahlil lingvistik tahlilning bir turi, uning bir ko'rinishida namoyon bo'lishidir. Kognitiv tilshunoslik inson ongida kechayotgan borliqni idrok qilish, anglash va ularni ro'yobga chiqarish turlari hamda shakllari kabi ongli jarayonlarni o'rganadi. Til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini, til va ong munosabatini, olamni konseptualashtirish va kategoriyalarga ajratish, bilish jarayoni hamda tajribalarni umumlashtirishda tilning o'rni kabi masalalarni tadqiq etuvchi sohadir. Bu yo'nalish

¹ Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 16.



XX asrning 70-yillarida Amerikada paydo bo'lib, hali to'la shakllanib ulgurmagan paradigma hisoblansa-da, keyingi yillarda jahon tilshunosligida til hodisalarini kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda.² Shuningdek, ularning aksariyatida kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri bo'lgan konsept tushunchasiga alohida e'tibor berilmoqda.³

N.N. Bolderev ta'kidlaganidek, kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi "tilni tadqiq qilish orqali bilimlarning har xil tuzilmalariga kirib borish hamda til va ular o'rtasidagi aloqadorliklarni izohlash" hisoblanadi.⁴

Ye.S. Kubryakova ta'kidlaganidek, kognitiv fan fikrlash, bilish, axborotni saqlash va qayta ishlash muammolari bilan shug'ullanuvchi ilmiy yo'nalishlar uchun "soyabon" termin vazifasini o'taydi. U kognitiv psixologiya, kognitiv tilshunoslik, kognitsiyaning falsafiy nazariyasi, tilning mantiqiy tahlili, sun'iy intellekt nazariyasi, neyrofiziologiya kabi sohalarni birlashtirishini hamda bugungi kunda kognitiv antropologiya, kognitiv sotsiologiya, hatto kognitiv adabiyotshunoslik ham shakllanib ulgurganligini qayd etadi. Bu fan maxsus dasturlarni tatbiq etish uchun zarur bo'lgan bilim va axborot bilan bog'liq, kognitsiya deb ham yuritiluvchi kognitiv jarayonlarni o'z ichiga oladi. Kognitsiya - subyektning bilish, idrok qilish va ta'riflash qobiliyatidir.⁵

Bundan ko'rinadiki, tilshunoslik sohasida kognitivlik masalasi borasida juda ko'p ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq tilni o'rgatishda kognitiv tilshunoslik qonuniyatlarini hisobga olishning lingvometodik asoslari yuzasidan tadqiqotlar mavjud emas. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim sohasida bu masala o'z yechimini kutmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Kognitiv" so'zi lotincha cognitio so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "bilish", "anglash", "idrok etish" va "fikrlash" degan ma'nolarni anglatadi. Bu insonning tashqi dunyoni aql va tafakkur orqali qanday qabul qilishi hamda o'zlashtirishini ifodalovchi tushunchadir.

Kognitiv jarayonlar - bu shaxsning atrof-muhitni anglash va bilish imkoniyatlarini shakllantiruvchi jarayonlardir. Bunga diqqat, xotira, idrok va tafakkur kabi psixologik jarayonlar kiradi. O'quv motivlari esa shaxsni bilim olishga undovchi va rag'batlantiruvchi ichki hamda tashqi omillar majmuasi sifatida tushuniladi. Shaxsning kognitiv rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi motivlar va usullarning tadqiqi pedagogika hamda psixologiya sohaslarida katta ahamiyatga ega.

Ta'limda kognitiv yondashuvni joriy etish - o'quvchilarni shunchaki tayyor ma'lumotni yodlashga emas, balki ma'lumotni faol izlashga, tanqidiy tahlil qilishga va muammolarni mustaqil hal etishga o'rgatadi. Bu usul o'quvchining shaxsiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz tadqiqotimiz davomida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitivlik darajasi qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida ba'zi tekshiruvlarni o'tkazdik. Ularga nostandart testlarni taqdim etdik. Shulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz.

1-savol. Quyida berilgan fikrlarning qaysilari to'g'ri bo'lsa, "ha", noto'g'ri bo'lsa, "yo'q" so'zlarini qo'ying.

- Ot shaxs va narsaning nomini bildiradi.
- Otlar faqat birlikda qo'llanadi.
- Otlar egalik qo'shimchalarini olib turlanadi.
- Otlar atoqli va turdosh otlarga bo'linadi.
- Otlar yasalmaydi.
- Otlarda 5 ta kelishik qo'shimchasi bor.
- Tabiat hodisalarini bildiruvchi so'zlar ot so'z turkumiga kirmaydi.

Ushbu hukmlarga javob berishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining aksariyati 2–3 ta xatoga yo'l qo'yishdi. Ba'zi ustozlarimizning til sohasida yetarli bilimga ega emasligi ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, "Otlar egalik qo'shimchalarini olib turlanadi" hukmiga barcha ustozlar "ha" javobini berishdi. Aslida to'g'ri javob "yo'q" bo'lishi lozim edi.

2 Qur'onbekov A. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari. – TDSHI, 2012. –B.15.

3 Мишин А. Концепты ум и глупость в немецкой и английской языковых картинах мира. Автореф.дис...канд. филол.наук. – Владимир, 2007. –С.7-15;

4 Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. –Тамбов, 2004. –С.23.

5 Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика - психология - когнитивная наука // ВЯ № 4,1994. –С. 35.

2-savol. Quyidagi iboralarning qaysi birida “aldash” ma’nosi mavjud?

- A. Laqqa tushmoq
- B. Ko’z boylamoq

Bu savolga tajribada ishtirok etgan boshlang’ich sinf o’qituvchilarining barchasi “A” variantini tanlashdi. Endi respondent o’qituvchilarning javoblarini tahlil qilamiz.

Laqqa tushmoq iborasi - surishtirmasdan, o’ylab o’tirmasdan osongina ishonmoq va aldanib qolmoq ma’nolarini anglatadi. Bu ibora ko’proq kishining soddaligi, g’afatda qolishi yoki yolg’onga ishonib qolish holatlarini tasvirlash uchun qo’llaniladi.

Misol: U kishining shirin so’zlariga laqqa tushib, barcha pullarini berib yuborganini kech tushundi.

Ko’z boylamoq iborasi - kimnidir chalg’itish, aldash, haqiqiy ahvolni yashirib, soxta va chiroyli ko’rinish bilan odamlarning e’tiborini boshqa tomonga qaratish ma’nosini anglatadi. Bu ko’pincha yolg’on, hiyla-nayrang yoki sirli harakatlar orqali amalga oshiriladi.

Misol: Uning va’dalari shunchaki ko’z boylash edi, aslida hech qanday ish qilgani yo’q. O’zbek tilida bu ibora ko’pincha yolg’on ma’lumot berish, rasmiyatchilik qilish yoki firibgarlik holatlarini tasvirlash uchun ishlatiladi. Demak, “aldash” ma’nosini bildirgan ibora ko’z boylamoq hisoblanadi. O’qituvchilarning xatosi mazkur iboralarni kontekstga olib kirish, ya’ni bu iboralar ishtirokida gap tuzib ko’rish fikrining mavjud emasligidadir. Chunki har qaysi so’z va iboralarning ma’nosi kontekstda aniqlanadi.

Savol tug’ildi: bu holatda ustozlarimizning savollarga noto’g’ri javob berishi til hodisalari haqida yetarli bilimga ega emasligimi yoki kognitiv qobiliyatning yetarli darajada shakllanmaganligimi? Bizningcha, ustozlarimizda kognitivlik, ya’ni “bilish”, “anglash”, “idrok etish” va “fikrlash” malakalari yetarli darajada rivojlanmagan. Buning sababi pedagogika oliy ta’lim muassasalarining boshlang’ich ta’lim o’quv rejasida “Ona tili” fanini o’qitish nazarda tutilgan bo’lsa-da, boshlang’ich sinf o’qituvchisini tayyorlashda bunday ma’lumot bilan chegaralanish ularda kognitivlikni shakllantirish ehtiyoji bilan mutanosib kelmasligi ekanligi aniqlandi. Shuning uchun talabalariga kognitiv tilshunoslik borasida yo’llanma beruvchi “Ona tilini o’rgatishda kognitiv tilshunoslik” nomli yangi integratsiyalashgan kurs dasturini ishlab chiqish va o’quv rejasida unga alohida fan sifatida soatlar ajratish lozim, deb o’ylaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, pedagogika oliy ta’lim muassasalarining boshlang’ich ta’lim o’quv rejasiga “Ona tilini o’rgatishda kognitiv tilshunoslik” modulini kognitiv yondashuv asosida kiritish zarur.

Ikkinchidan, talabalarda tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish lozim.

Uchinchidan, o’qituvchilar uchun kognitiv kompetensiyalarga asoslangan metodik qo’llanmalarni yaratish va ularni uzluksiz kasbiy rivojlanish doirasida qo’llash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’limda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining til savodxonligini rivojlantirishda kognitiv yondashuvga asoslanish, bir tomondan, talabalarining axborot bilan ishlash, uni qayta ishlash va tanqidiy tahlil qilish ko’nikmalarini chuqurlashtiradi. Bu yondashuv orqali talabalarda shaxsiy va professional hayotda ongli qarorlar qabul qilish, mas’uliyatli xatti-harakatlar namoyon etish ko’nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. - Тамбов, 2004. - С.23.
2. Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика - психология - когнитивная наука // ВЯ № 4, 1994. - С. 35.
3. Мишин А. Концепты ум и глупость в немецкой и английской языковых картинах мира. Автореф.дис...канд. филол.наук. - Владимир, 2007. - С.7-15;
4. Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 16.
5. Qur’onbekov A. Tilshunoslikning zamonaviy yo’nalishlari. - TDSHI, 2012. - B.15.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.